

Glossariy.

Yopiq kollateral – ksilema va floema bir-biriga tutashib, ular orasida bir urug‘pallali o‘simliklar poyasi uchun xarakterli bo‘lgan kambiy qatlami bo‘lmaydi.

Ochiq kollateral – ksilema va floema orasida kambiy qatlamining mavjudligi bilan ajralib turadi, bu ko‘pchilik ikki urug‘pallali o‘simliklarning poyalariga xosdir.

Bikolateral – floemaning ichki va tashqi qismlari mavjud bo‘lib, ular kambiy va ksilema bilan o‘ralgan, bu tuzumdo‘shlar va qovoqdoshlar oilalarining vakillarida uchraydi.

Radial – ksilema va floema butun tananing bo‘ylab nurlar shaklida tarqaladi, asosan ildizning so‘rish zonasida uchraydi.

Konsentrik bog‘lamlar – markazda ksilema joylashgan, uni o‘rab turadigan floema yoki aksincha, floema ksilema bilan o‘ralgan, bu qirqquloq, marvaridgul, gulsafsar kabi o‘simliklarning ildizpoyalarida uchraydi.

Kalleza – gemitsellyuloza guruhiga kiradigan polisaxarid bo‘lib, elaksimon naychalar orasidagi funksiyasini tugatgan elaksimon plastinkalar teshiklarni yopadi.

Ksilema – yuqori o‘simliklar uchun suvni o‘tkazuvchi to‘qima bo‘lib, ildizlardan barglarga mineral tuzlarni olib boradi.

Floema – yuqori o‘simliklar to‘qimasi bo‘lib, barglardan o‘simlikning barcha organlari va to‘qimalariga organik moddalarni o‘tkazadi.